

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MUASSASALARIDA “KELAJAK SOATI” MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISH KONSEPSIYASI

I. UMUMIY QOIDALAR

Maqsadi va huquqiy asoslari

Mazkur Konsepsiya umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida har hafta o‘tkaziladigan “Kelajak soati” mashg‘ulotlarining maqsadi, mazmuni, tashkil etish tartibi, metodologiyasi, baholash mexanizmi va kutiladigan natijalarini belgilaydi. Ushbu Konsepsiya Milliy tarbiya modelining asosiy qismlaridan biri bo‘lib, “Yangi O‘zbekiston - Uchinchi Renessans sari” g‘oyasi asosida yosh avlodda “Men o‘zbekistonlikman” degan faxr tuyg‘usini, xalqqa muhabbat va Vatanga sadoqat fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Konsepsiyaning huquqiy asoslari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori. 2019-yil 31-dekabr.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta‘lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 34-son qarori. 2026-yil 28-yanvar.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta‘lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. 2026-yil 28-yanvar, 34-son.
9. “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-son qarori, 2019-yil 31-dekabr.
10. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi. “Ilk qadam” maktabgacha ta‘lim tashkilotining takomillashtirilgan davlat o‘quv dasturi.

Asosiy tushunchalar

“Kelajak soati” – o‘quvchi-yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda Vatanga sadoqat, fuqarolik mas‘uliyati, ma‘naviy-axloqiy fazilatlar, huquqiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, zamonaviy fikrlash va ijtimoiy faollikni shakllantirishga qaratilgan tizimli tarbiyaviy-ma‘rifiy mashg‘ulotlar majmui;

“Milliy tarbiya modeli” – maktabgacha ta‘limdan oliy ta‘limgacha bo‘lgan uzluksiz tarbiya tizimining yagona konseptual, mazmuniy va metodik asosi;

“Ma’naviy immunitet” – o‘quvchining axborot tahdidlari, zararli g‘oyalar, mafkuraviy xurujlar va salbiy ijtimoiy ta’sirlarga nisbatan ongli, tanqidiy va barqaror munosabatini ta’minlovchi ichki ma’naviy-psixologik himoya tizimi.

II. MAQSAD VA VAZIFALARI

Asosiy maqsad

“Kelajak soati” mashg‘ulotlarining asosiy maqsadi - o‘quvchi-yoshlarda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar, mustaqil va tanqidiy tafakkur, milliy o‘zlikni anglash, Vatanga daxldorlik va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallagan, tashabbuskor, mas’uliyatli, ijtimoiy faol va keng dunyoqarashga ega shaxs sifatida kamol toptirishdan iborat.

Shuningdek, “Kelajak soati” mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarda jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etish, o‘z huquq va burchlarini anglash, yurt taraqqiyotiga daxldorlik hissini qaror toptirish hamda Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy rivojiga munosib hissa qo‘shishga intilishni shakllantirish nazarda tutiladi.

Vazifalar

1. Kichik yoshdagi bolalar va o‘quvchilarda Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va fuqarolik burchini anglash;
2. Bilim olish, kitobxonlik, mehnat qilish, kasbga qiziqish va maqsad belgilash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
3. Yaxshi xulq, odob, intizom, mas’uliyat, halollik, mehr-oqibat va bag‘rikenglik fazilatlarini shakllantirish;
4. Zo‘ravonlik, beparvolik, yolg‘on, zararli odatlar va axborot tahdidlaridan himoyalash;
5. Raqamli madaniyat, internet xavfsizligi va zamonaviy texnologiyalarga ongli munosabatni tarbiyalash;
6. Milliy madaniyat, ona tili, tarixiy meros, ajdodlar merosini qadrlashni rivojlantirish;
7. Innovatsion fikrlash, tashabbuskorlik, ijodkorlik va startap madaniyatini shakllantirish.

III. MAZMUNIIY ASOSLAR

Mavzu yo‘nalishlari

“Kelajak soati” mashg‘ulotlari mazmuni 9 ta ustuvor tarbiyaviy yo‘nalish bo‘yicha shakllantiriladi.

№	Yo‘nalish	Mazmuni
1	Vatan, millat va davlatchilik	Vatanga sadoqat, milliy o‘zlikni anglash va yurt ravnaqiga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish. Davlat ramzlari, fuqarolik burchi va jamiyat oldidagi mas’uliyatning mazmun-mohiyatini anglash. Mustaqil va tanqidiy fikrlash, ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabat bildirish hamda mas’uliyatli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik mas’uliyati va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga intilishni tarbiyalash.

№	Yoʻnalish	Mazmuni
2	Ilm, maʼrifat va kasbiy yoʻnalish	Ilm va maʼrifatning inson kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotidagi oʻrnini anglash, bilim olish va mustaqil taʼlim olishga intilishni shakllantirish. Kitobxonlik madaniyati, ustoz-shogird anʼanasi va bilim manbalaridan samarali foydalanish koʻnikmalarini rivojlantirish. Oʻquvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash, kasb tanlash, maqsad belgilash hamda kelajak faoliyatini rejalashtirishga yoʻnaltirish. Tanqidiy va ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, oʻz faoliyatini baholash va shaxsiy yutuqlarini portfolio orqali tizimlashtirish koʻnikmalarini rivojlantirish.
3	Mustaqillik timsollari	Davlat ramzlarining mazmuni va ahamiyatini anglash, ularga hurmat va ehtirom bilan munosabatda boʻlish. Milliy gʻurur va yurt taqdiriga masʼuliyatli munosabatni shakllantirish. Ajdodlarimizning tarixiy va madaniy merosini oʻrganish, asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish. Mustaqillik qadriyatlarini asrash, yurt ravnaqi va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshishga intilishni rivojlantirish.
4	Huquqiy madaniyat va xavfsizlik	Bola huquq va burchlarini anglashi, qonunlarga hurmat va huquqiy madaniyatni shakllantirish. Axloqiy meʼyorlar va huquqiy qoidalar asosida toʻgʻri xulq-atvorni rivojlantirish, zoʻravonlikning har qanday koʻrinishiga qarshi munosabatni shakllantirish. Boshqalarning huquq va shaxsiy chegaralarini hurmat qilish, nizolarni tinch yoʻl bilan hal etish koʻnikmalarini rivojlantirish. Kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish, shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish hamda raqamli muhitda xavfsiz, masʼuliyatli va ongli xulq-atvorni shakllantirish.
5	Vatan himoyasi va mardlik	Vatan himoyasining fuqarolik burchi va yuksak masʼuliyat ekanini anglash, harbiy-vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirish. Mardlik, jasorat, qatʼiyat, intizom va masʼuliyat kabi fazilatlarni rivojlantirish. Tinchlik va osoyishtalikni qadrlash, yurt xavfsizligi va barqarorligini asrashga masʼuliyatli munosabatni shakllantirish. “Vatan tayanchi” gʻoyasi asosida Vatanga sadoqat, fidoyilik va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishga intilishni tarbiyalash.
6	Ajdodlar merosida axloq va odob tarbiyasi	Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning boy maʼnaviy merosi asosida ezgulik, halollik, adolat va insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirish. Masʼuliyat, intizom, kamtarlik, sabr-toqat va mehr-oqibatning inson hayotidagi ahamiyatini anglash. Ajdodlarimizning ibratli hayoti va qarashlari orqali odob-axloq meʼyorlariga rioya qilish, boshqalarga hurmat va gʻamxoʻrlik bilan munosabatda boʻlishni rivojlantirish. Taʼlim jarayonida akademik halollik, oʻz mehnatiga masʼuliyatli yondashish va bilimni halol yoʻl bilan egallash koʻnikmalarini shakllantirish.
7	Milliy oʻzlik va madaniy meros	Milliy anʼana va qadriyatlarning mazmun-mohiyatini anglash, milliy oʻzlikni his etish va madaniy merosga hurmat bilan munosabatda boʻlish.

№	Yoʻnalish	Mazmuni
		Xotin-qizlarga hurmat va ehtirom, kattalarga hurmat, kichiklarga gʻamxoʻrlik kabi milliy odob-axloq meʼyorlarini rivojlantirish. Ajdodlardan meros boʻlib kelayotgan urf-odatlar, Navroʻz bayrami va xalq anʼanalarining tarbiyaviy ahamiyatini oʻrganish. Milliy oʻyinlar va anʼanalarni asrab-avaylash, ularni zamonaviy hayot bilan uygʻunlashtirish orqali milliy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirish.
8	Buyuk ajdodlar - milliy faxrimiz	Buyuk ajdodlarimizning ilmiy, maʼnaviy, madaniy va davlat boshqaruvi sohasidagi merosini oʻrganish hamda uning tarixiy ahamiyatini anglash. Amir Temur va temuriylar davrining ilm-fan, madaniyat, meʼmorchilik va davlat boshqaruvi rivojiga qoʻshgan hissasi haqida bilimlarni boyitish. Ajdodlarimizning ilmiy va bunyodkorlik faoliyati bilan faxrlanish, ularning ibratli fazilatlarini oʻrganish va qadrlash. Milliy tarix va merosga hurmat, ilm olishga intilish hamda ajdodlarimizga munosib avlod boʻlish masʼuliyatini shakllantirish.
9	Xotira va qadrlash - insoniylik mezoni	Xotira va qadrlashning insoniylik, maʼnaviyat va milliy qadriyatlarni asrashdagi ahamiyatini anglash. Vatan ozodligi, tinchligi va taraqqiyoti yoʻlida xizmat qilgan insonlar xotirasini eʼzozlash, urush va mehnat faxriylariga hurmat koʻrsatish. Ajdodlarimizning ibratli hayoti va faoliyatini oʻrganish orqali yosh avlodda hurmat, minnatdorlik va insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish. Avlodlar oʻrtasidagi maʼnaviy vorislikni mustahkamlash, tarixiy xotirani asrash va ajdodlar merosini kelajak avlodga yetkazish masʼuliyatini shakllantirish.

Yosh guruhlarini boʻyicha moslashtirish

“Kelajak soati” mashgʻulotlari mazmuni oʻquvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda toʻrt bosqichda taqdim etiladi:

Bosqich	Sinflar	Yosh	Xususiyatlar	Asosiy metodlar
I		3–6 yosh	Koʻrish, tinglash, kuzatish va harakat orqali oʻrganish;	suhbat, savol-javob, hikoya va ertak, kuzatish, koʻrsatish, amaliy mashqlar, rasm, boʻyash, applikasiya,
II	1–4-sinflar	7–10 yosh	Ibrat, taqlid, oʻyin, kuzatish, his-tuygʻular	Hikoya, multfilm, rasm, rolli oʻyin, ibratli misol
III	5–8-sinflar	11–14 yosh	Axloqiy tanlov, internet madaniyati, milliy oʻzlik, tarixiy xotira	Insho, esse, video, muhokama, keys, debat, loyiha

Bosqich	Sinflar	Yosh	Xususiyatlar	Asosiy metodlar
I		3–6 yosh	Ko‘rish, tinglash, kuzatish va harakat orqali o‘rganish;	suhbat, savol-javob, hikoya va ertak, kuzatish, ko‘rsatish, amaliy mashqlar, rasm, bo‘yash, applikatsiya,
IV	9–11-sinflar	15–17 yosh	Fuqarolik pozitsiyasi, kasbiy maqsad, mustaqil fikr, innovatsiya	Insho, esse, tadqiqot, taqdimot, volontyorlik, startap

“Kelajak soati” mazmuni bosqichlar bo‘yicha uzviy ravishda chuqurlashtirib boriladi

maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun - tarbiya va madaniyat;

1–4-sinflar uchun - madaniyat va qadriyat;

5–8-sinflar uchun - qadriyat va ijtimoiylashuv;

9–11-sinflar uchun - **ijtimoiylashuv** va fuqarolik mas’uliyati;

IV. TASHKIL ETISH TARTIBI

O‘tkazish vaqti va davomiyligi

“Kelajak soati” mashg‘ulotlari har haftaning dushanba kuni, birinchi mashg‘ulot sifatida o‘tkaziladi. mashg‘ulotning davomiyligi - **1 akademik soat - 45 daqiqa**.

Oylik ishlar ketma-ketligi

Har bir oylik mavzu to‘rt haftalik izchil bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

1-hafta - kontentlar taqdim etiladi;

2-hafta - o‘quvchilar orqali oila a‘zolarining mavzuga munosabati bilib olinadi; **“Biz uchun muhim”** rukni: o‘quvchilarga shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, xavfsizlik va xavf-xatarlarning oldini olish, kiberxavfsizlik, sog‘lom turmush tarzi kabi kundalik hayot uchun muhim mavzularda amaliy tavsiyalar va topshiriqlar beriladi; ular oila a‘zolari bilan mavzuni muhokama qilib, o‘z xulosalarini sinfda bayon qiladilar.

3-hafta - o‘quvchilar mavzu bo‘yicha kontent (rasm, videorolik yoki she‘r) tayyorlab kelishadi;

4-hafta - mavzu yuzasidan insho yoki esse yoziladi.

Pedagog kadrlar

“Kelajak soati” mashg‘ulotlarini maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilar hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari sinf rahbarlari o‘tkazadi. mashg‘ulotlarga quyidagi shaxslar jalb etilishi mumkin:

- 1) maktab psixologi, pedagog;
- 2) mahalla faollari, ota-onalar, nufuzli shaxslar;
- 3) soha mutaxassislari- huquqshunos, tibbiyot xodimi, harbiy xizmatchilar, yozuvchilar, shoirlar, teatr va kino aktyorlari;
- 4) kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun “yuqori sinf mentorlari” (10-11-sinf o‘quvchilari).

Metodik ta’minot

- 1) Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan har o‘quv yili uchun o‘quv reja va dasturlar tasdiqlanadi;

- 2) har bir mavzu uchun mashg'ulot ishlanmasi, videokontent va qo'shimcha materiallar tayyorlanadi;
- 3) barcha materiallar "milliytarbiya.uz" elektron platformasiga joylashtiriladi;
- 4) sinf rahbarlari uchun maqsadli malaka oshirish kurslari kaskad usulida tashkil etiladi;
- a) malaka oshirish (KRK) va qayta tayyorlash kurslari (KRS) dasturlariga 3 soatga mo'ljallangan "Kelajak soati mashg'ulotlarini o'tish metodikasi" moduli kiritiladi;
- b) avgust-sentyabr oylarida master-trenerlar uchun yangilangan dastur asosida o'qitish mahoratini oshirishga qaratilgan treninglar tashkil etiladi;
- c) oktyabr oyidan boshlab ushbu modul KRK va KRS tadbirlarida amalda qo'llaniladi.
- 5) har bir viloyat va tuman uchun metodik yordam guruhlari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

V. METODOLOGIK ASOSLAR

Pedagogik tamoyillar

- 1) Insonparvarlik, bag'rikengilik. O'quvchida inson qadrini hurmat qilish, turli fikr, qarash va xususiyatlarga ega insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, mehr-oqibat va hamjihatlikni namoyon etish ko'nikmalari shakllantiriladi.
- 2) Tarbiya va ta'lim birligi. Har bir mavzu o'quvchining nafaqat bilim olishi, balki xulq va munosabatining o'zgarishiga qaratiladi.
- 3) Yoshga moslik. Mazmun, til, vizual material va metodlar o'quvchining yosh xususiyatlariga mos bo'ladi.
- 4) Interaktivlik. Mashg'ulot muloqot, muhokama, rolli vaziyat, debat va loyiha shaklida o'tkaziladi.
- 5) Ibrat va namuna. Tarbiya amaliyot orqali beriladi. O'qituvchi, oila, jamoat arboblari ibrat manbai bo'ladi.
- 6) Hayotiylik. Har bir mavzu tarbiyalanuvchi va o'quvchining hayotida uchraydigan vaziyatlar bilan bog'lanadi.
- 7) Raqamli yondashuv. Zamonaviy mediakontent, videomateriallar, multimedia vositalari va elektron ta'lim platformalaridan mashg'ulot mazmunini boyitish hamda o'quvchilarning faolligini oshirish maqsadida foydalaniladi.
- 8) "Bilish - munosabat - amal" mezoni. Tarbiya natijasi uch bosqichda ko'zlanadi: o'quvchi tushunchani biladi, unga ijobiy munosabatda bo'ladi va kundalik hayotda amal qiladi.
- 9) Oila - mahalla - maktab hamkorligi. Tarbiya faqat maktabda emas, balki oila va mahalla ishtirokida amalga oshiriladi.

Mashg'ulot tuzilmasi modeli

"Kelajak soati" mashg'uloti 5 bosqichli **"TAAAR" modeli** (Tanishtirish - Anglash - Amaliyot - Anglash - Refleksiya) asosida o'tkaziladi:

Bosqich	Mazmuni	Vaqt	O'quvchi faoliyati
T-Tanishtirish	Mavzu e'loni, qiziqitiruvchi fakt yoki hikoya	5 daq	Tinglaydi, qiziqadi
A-Anglash	Asosiy mazmun: video, ma'ruza, mehmon nutqi	15 daq	Tinglaydi, kuzatadi, savol beradi
A-Amaliyot	Muhokama, rolli vaziyat, guruh ishi, keys	12 daq	Faol ishtirok etadi, fikr bildiradi

Bosqich	Mazmuni	Vaqt	O'quvchi faoliyati
A-Anglash (chuqur)	“Bu menga nima beradi? Men nima o'zgartiraman?”	8 daq	Fikrlaydi, xulosa chiqaradi
R-Refleksiya	Yozma yoki og'zaki refleksiya, keyingi hafta anonsi	5 daq	Dalillaydi, yakuniy xulosa chiqaradi, qaror qabul qiladi

Har bir “Kelajak soati” mashg'uloti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- 1) Vatanimiz bayrog'i ko'tariladi va madhiya kuylanadi;
- 2) “Tengdosh tengdoshga” kontenti namoyish etiladi;
- 3) “Qahramon bilan suhbat” qismi (mehmon nutqi yoki videomurojaat);
- 4) O'quvchilar orqali oila a'zolarining mavzuga munosabati bilib olinadi;
- 5) Mavzuga daxldor videorolik namoyish etiladi;
- 6) o'quvchilar bilan yakuniy muloqot o'tkaziladi.

VI. MAZMUN KOMPONENTLARI

Mashg'ulot ishlanmasi tarkibi

Har bir “Kelajak soati” mashg'uloti uchun tayyorlanadigan ishlanma quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- 1) mavzu nomi va tarbiyaviy maqsadi, kutilayotgan natijasi;
- 2) mo'ljallangan sinflar (yosh guruhi);
- 3) o'quv-metodik resurslar (video, rasm, QR-kodli va raqamli resurslar va h.k.);
- 4) mashg'ulot jarayonining batafsil tavsifi (5 bosqich);
- 5) muhokama savollari;
- 6) refleksiya topshirig'i;
- 7) oila bilan hamkorlik bo'yicha tavsiyalar (uyda davom ettirish uchun);
- 8) foydalanilgan manbalar.

Videokontent talablari

Videokontentlar quyidagi talablarga javob berishi shart:

- 1) davomiyligi 3 dan 5 daqiqagacha;
- 2) ta'lim tili o'zbek va qoraqalpoq tillarida, oddiy va tushunarli;
- 3) ko'rgazmali, mazmunli, yosh xususiyatlariga mos va milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi;
- 4) mazmun dalil va keyslarga asoslangan, tarbiyaviy, rag'batlantiruvchi;
- 5) subtitrdan foydalaniladi (inklyuziv ta'lim oluvchi o'quvchilar uchun).

Qo'shimcha shakllantiriladigan kompetensiyalar

mashg'ulotlar mazmunidan tashqari, quyidagi yo'nalishlarda ham o'quvchilar qo'shimcha kompetensiyalarga ega bo'lishi ta'minlanadi:

- sun'iy intellekt (AI) texnologiyalariga qiziqtirish;
- shaxsiy portfolio tayyorlashni o'rgatish;
- xalqaro sertifikatlar haqida tushuncha berish va ularga tayyorlanish bo'yicha yo'riqnomalar taqdim etish;

- shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- sog'lom turmush tarzi va shaxsiy salomatlikka mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish; nufuzli universitetlar va ularga kirish tartib-shartlari to'g'risida ma'lumotlar ulashish.

Yillik mavzular rejasi tuzish tartibi

Yillik mavzular rejasi quyidagi mezonlar asosida tuziladi:

- 1) davlat bayramlari, muhim sanalar va haftaliklar bilan uyg'unlik;
- 2) 9 ta tarbiyaviy yo'nalishning teng taqsimoti;
- 3) mavsumiylik va taqvimiy xususiyatlarni hisobga olish (o'quv yilining har bir davriga mos tarbiyaviy mazmunni belgilash);
- 4) yosh xususiyatlari bo'yicha tabaqalashtirish.

VII. BAHOLASH

“Kelajak soati” mashg'ulotlarining tarbiyaviy samaradorligi quyidagi usullarda kuzatiladi:

“Bilish - munosabat - amal” mezon:

Mezon	Tavsifi	Aniqlash usuli
Bilish va tushunish	O'quvchi mavzuga oid asosiy tushuncha va ma'lumotlarni biladi, tushuntiradi hamda misollar keltiradi.	Savol-javob, muhokama, qisqa topshiriqlar
Munosabat	O'quvchi mavzuga nisbatan shaxsiy fikrini bildiradi, o'z munosabatini asoslaydi va xulosa chiqaradi.	Refleksiya, fikr almashish, o'z-o'zini baholash
Amaliy faoliyat	O'quvchi o'rgangan bilim va qadriyatlarini kundalik hayotdagi xatti-harakatlari va amaliy faoliyatida namoyon etadi.	O'qituvchi kuzatuv, amaliy topshiriqlar, o'quvchi portfoliosi, oila a'zolari fikri

VIII. OILA VA JAMOATCHILIK ISHTIROKI

Oila ishtiroki

“Kelajak soati” mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda oila ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi:

- 1) har chorakda kamida bir marta oila a'zolari “Kelajak soati” mashg'ulotlariga taklif qilinadi;
- 2) oila a'zolariga mavzuga mos ravishda oilaviy muhitda tarbiyaviy jarayonni davom ettirishga qaratilgan tavsiyalar taqdim etiladi;
- 3) “Oila - mahalla - maktab” hamkorlik mexanizmi asosida madaniy uchrashuvlar tashkil etiladi;
- 4) oila a'zolarining fikr-mulohazalari tahlil qilinadi va mashg'ulotlar mazmunida aks ettiriladi.

Jamoatchilik ishtiroki

mashg'ulotlarga jamoatchilikni jalb etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1) taniqli olimlar, ziyolilar, san'atkorlar, yozuvchilar, sportchilar va jamoat arboblari mehmon sifatida taklif qilinadi;
- 2) mahalla raislari, nuroniy oqsoqollar, sobiq bitiruvchilar ishtirok etadi;

3) muvaffaqiyatli tadbirkorlar, sportchilar, IT mutaxassisleri va startap asoschilari kasbiy yoʻnaltirish mashgʻulotlarida qatnashadi.

Hamkor tashkilotlar

Dastur amalga oshirilishida quyidagi davlat va jamoat tashkilotlari hamkorlik qiladi:

- 1) Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati;
- 2) Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
- 3) Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;
- 4) Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- 5) Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi;
- 6) Oʻzbekiston Respublikasi Sport vazirligi.
- 7) Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi;
- 8) Oʻzbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi;
- 9) Oʻzbekiston Respublikasi Turizm qoʻmitasi;
- 10) Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki;
- 11) Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi;
- 12) Taʼlimni rivojlantirish markazi;
- 13) Islom sivilizatsiyasi markazi;
- 14) Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi;
- 15) Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi;
- 16) Ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markazi;
- 17) Bolalar kontentini rivojlantirish markazi.

IX. RAQAMLI TAʼMINOT

Elektron platforma

“Kelajak soati” mashgʻulotlarining raqamli taʼminoti “milliytarbiya.uz” elektron platformasi orqali amalga oshiriladi:

- 1) barcha mashgʻulot ishlanmalari, videokontentlar, qoʻshimcha materiallar platformaga joylashtiriladi;
- 2) pedagoglar materiallarni bepul yuklab olish imkoniga ega;
- 3) platformada fikr-mulohaza, baholash va tavsiya berish funksiyasi ishlaydi;
- 4) eng yaxshi amaliy ish namunalari alohida boʻlimda taqdim etiladi.

Ijtimoiy tarmoqlar

“Kelajak soati” kontentlari quyidagi platformalarda tarqatilishi mumkin:

- 1) Telegram kanali - metodik materiallar, mavzu anonslari;
- 2) Instagram - qisqa videokliplar, iqtiboslar kartochkalari, infografika;
- 3) YouTube -toʻliq videokontentlar, vebinarlar, treninglar.

X. KOʻRIK TANLOVLAR

“Kelajak soati” doirasida oʻquvchilarning ijodiy va amaliy faoliyatini ragʻbatlantirish, ilgʻor tajribalarni ommalashtirish maqsadida turli koʻrik-tanlovlar tashkil etiladi:

1. **“Vatanim - faxrim”** - Mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan rasm, she‘r, hikoya va ijodiy ishlar tanlovi.
2. **“Ustozimga ehtirom”** - O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan ijodiy ishlar, tabriklar va videolavhalar tanlovi.
3. **“Ramzlarimiz - g‘ururimiz”** - Davlat bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga bag‘ishlangan rasm, plakat, kollaj va taqdimotlar tanlovi.
4. **“Konstitutsiya - huquqlarimiz kafolati”** - Konstitutsiya kuniga bag‘ishlangan ijodiy ishlar va huquqiy mavzudagi kichik loyihalar tanlovi.
5. **“Ajdodlar merosi - faxrimiz”** - buyuk ajdodlarimiz hayoti va merosiga bag‘ishlangan hikoya, rasm, sahna ko‘rinishi va taqdimotlar tanlovi.
6. **“Navro‘z - yangilanish bayrami”** - Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analarni aks ettiruvchi ijodiy ishlar tanlovi.
7. **“Onajonimga ehtirom”** - 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan she‘r, rasm, hikoya va videolavhalar tanlovi.
8. **“Xotira - muqaddas”** - 9-may - Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan xotira hikoyalari, rasmlar va oilaviy tarixga oid ijodiy ishlar tanlovi.
9. **“Kitob - bilim manbai”** - kitobxonlikni targ‘ib qilishga bag‘ishlangan eng yaxshi kitob taqdimoti, hikoya va ijodiy ishlar tanlovi.
10. **“Yangi yil - yangi orzular”** - Yangi yil bayrami munosabati bilan ezgu tilaklar, kelajak orzulari va ijodiy ishlar tanlovi.

Tanlov g‘oliblari va eng yaxshi ishlar **“milliytarbiya.uz” elektron platformasi hamda “Kelajak soati”ning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida** namoyish etiladi.

XI. KUTILADIGAN NATIJALAR

- 1) o‘quvchilarda milliy o‘zlik, vatanparvarlik, halollik, mas‘uliyat, insonparvarlik va ijtimoiy faollik kabi fazilatlarining rivojlanishida ijobiy dinamika kuzatiladi;
- 2) o‘quvchilarning raqamli savodxonligi, media madaniyati, internet va kiberxavfsizlik bo‘yicha bilim hamda xavfsiz xulq-atvor ko‘nikmalari rivojlanadi;
- 3) “Kelajak soati” maktab ta’lim-tarbiya tizimining uzviy tarkibiy qismiga aylanib, fanlar, sinfdan tashqari faoliyat hamda maktab -oila -mahalla hamkorligi bilan uyg‘unlashadi;

XII. YAKUNIY QOIDALAR

1. Mazkur Konsepsiya Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Respublika ta’lim markazi, Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Bolalar kontentini rivojlantirish markazi va manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda amalga oshiriladi.
2. Konsepsiyaning ijrosini metodik, ilmiy va monitoring jihatdan ta’minlash uchun doimiy ishchi guruh tashkil etiladi.
3. Konsepsiyaga Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.